

NAVOIY IJODIDA "MUSTAZOD" NING O'RNI

Olimova Shohsanam Jahongir qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti, Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10438806>

Annotatsiya: Maqolada mustazod janri haqida batafsil ma'lumotlar berilgan hamda uning Navoiy poetikasidagi bebaho o'rni yoritib berilgan. Maqolaning kirish qismi Navoiyning sermahsul ijodkorligi haqida, asosiy qism mustazod janri, xotimasi esa "Xazoyin ul-maoniy" asaridagi mustazodlar tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Navoiy hayoti, mustazod, vazni, taqte'si, Xazoyin ul-maoniy asari, orifona, oshiqona, rindona, irfoniy.

Kirish

Yirik mutasavvuf shoir, davlat arbobi, o'z davrida "shams ul-millat" darajasi bilan ulug'langan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy turkiy tilning asoschisi. Uningdek ko'p va xo'b she'r yozgan ijodi bo'lmasligini o'z vaqtida Zahiriddin Muhammad Bobur ham tan olgan. Yigirma olti mingdan ortiq so'zdan foydalangan adib chinakam buyuk dahodir. Uning yaratgan asarlari dunyo nigohida. Uning ilmiy va badiiy merosi shu qadar ko'pki, barchasini tahlil qilib bo'lmaydi. U nasrda ham, nazmda ham, bakali ijod qilgan.

Asosiy qism

She'riy asarlarning asosiy unsuri bu vazn. Vazn nazmdagi misralarga ritm bag'ishlaydi. Ana shunday ritmda yoziladigan janrlardan biri - mustazod. Mustazod arabcha so'z bo'lib, "orttirilgan", " ziyoda qilingan" kabi ma'nolarni anglatadi. Navoiy o'zining "Mezon ul-avzon" asarida "...xalq orasida bir surud bor ekankim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt boshlab bitib, aning misraidin so'ngra hamul bahrining ikki rukni bilan ado qilib, surud nag'motig'a rost kelturarlar ermish va ani mustazod derlar ermish..." deb o'tgan. Ushbu she'riy janr bir misra, har bir misrasidan so'ng yana yarim misrasi orttiriluvchi she'r shaklidan iborat. Janr uchun g'azal asos sanaladi. Ikkala janrning qofiyalanish tizimi, baytlar soni, matla', maqta' va taxallusning mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. Lekin g'azal aruz tizimining barcha bahrlarida yaratilgani holda mustazod faqat, hazaj bahrining hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi, mustazod (ruknlari va taqte': mafulu mafoiylyu mafoiylyu fauvlun maf ulu fauvlun — V/V— V/V— V/V— /— V/V —) vaznida yoziladi. Qofiyalanish tizimi: birinchi band-ab,ab,ab,ab,ab; ikkinchi band vg,vg,vg,vg,ab; uchinchi de,de,de,de,ab va boshqa shakllarda bo'ladi. Agar mustazod ikki juft misradan iborat bo'lsa, birinchi bandda qofiya kesishuvchi -ab,ab; keyingilarida birinchi misra qofiyalanmay ikkinchilari birinchi banddagi qofiyani takrorlaydilar.

Turkiy adabiyotda mustazodning ilk na'munalari Gadoiy va Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Hofiz Xorazmiy devonida har biri 7 baytdan iborat ikki mustazod, Gadoiy devonida esa 5 baytli bir mustazod mavjud. Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida mustazod janriga alohida ta'rif berib, uning ohangi surud nag'moti (kuy ohangi) ga mos kelishini aytadi: Navoiy yozgan barcha mustazodlar " Xazoyin ul-maoniy" da jamlangan. Har bir devonda bir mustazod kiritilgan. "G'aroyib us-sig'ar" ga hamd mavzusidagi, keyingi devonlarda rindona, oshiqona to'rtinchi devonga orifona mazmundagi mustazod mavjud. Hamd mavzusidagi mustazod Olloh

taolo va dunyoni tajalliy nazariyasiga asosan idrok etish, Olamdagi narsalarning barchasi uning husni uchun mazhar ekanligi, dunyoda u zot-sohib bo'lsa, olam unga qul ekanligi yoritilgan.

Ey husnunga-zarroti jahon ichra tajalli,
 mazhar sanga ashyo,
 Sen lutf bila kavn-u makon ichida mavli,
 olam sanga mavlo.
 Har yon kezaram telbasifat toki yashundung
 ko'zdin pariy yanglig',
 Majnundin o'zin toki nihon qilmadi Laylo,
 ul bo'lmadi shaydo.

Kulliyotning ikkinchi devonidan o'rin olgan ushbu mustazod "Oqqo'yunli muxlislar" devonida ham uchraydi. Unda oshiqning ko'tarinki kayfiyati ifodalangan. Unda "mug'bacha" oshiqni komil pir bilan bog'laydi. Allohdan mujda keltirgan farishta timsoldir. So'nggi baytlarda esa Xusravi G'oziy ismi orqali talmeh san'ati namoyon etilgan.

Din ofati bir mug'bachai mohliqodur,
 mayxora-vu bebok
 Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur
 sarmast-u yaqom chok.
 Ham turrasining dud-u vara' beliga zunnor,
 men kofiri ishq

Ham yuzi majus o'ti kibi shu'lafizodur,
 men o'rtanibon pok...

Oshiq rind muhabbat mayidan mast, ishq bobida o'zidan bexabar, ishqning xumorini yozish uchun falakdek komil inson qalbi kerak... Baytdagi "Dayr"-komil inson huzuri, ma'naviyat olami. "Sog'ar"-komil inson qalbi, ishq manbai. Alisherning zamondoshlaridan biri Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye" asarida keltirilishicha, ushbu mustazodga o'z davrining bastakori Xo'ja Abdullo Marvorid kuy bastalagan. Bu kuy shunchalik mashhur kuyga aylanganiki, butun Hirot undan bahra olgan. Bir bazmda hatto "sarmast-u yaqom chok" satri kuylanayotganda majlisdagilar o'z yoqalarini yirtganlarini Navoiy ham ko'rib qolgan. Bu haqida u "Hayrat ul-abror" da shunday yozadi:

Bazmda ul lahza alolani ko'r,
 Ko'yi xarobat aro g'avg'oni ko'r.
 Ko'rki nechukdur yaqo chok aylamak,
 O'zni fig'on birla halok aylamak.

"Badoye' ul-vasat" dan o'rin olgan mustazod oshiqona ruhda sanalib, uning vasliga yetishish yo'lidagi azob-uqubatlar tasvirlangan. Baytlarda yorning "g'amza joduliligi" qoshi, uni bezovchi zori falak -taqdir, quyosh-oy yuzli pari uchun ko'zguligi tashbeh san'ati orqali yoritilgan.

Yorning nazar solmagani oshiq uchun qatldek ta'riflanadi. Mustazodda majozan tariqat yo'liga kirgan solikning tuyg'ulari bayon etilgan.

Ne vo'sma-vu kesmadur ul zulfi sumansoy,
ne g'amzayi jodu,
Mashshoti sanga zoli falakdur mag'ar, ey oy,
xurshid anga ko'zgu.

"Favoyid ul-kibar" dagi mustazod irfoniy yo'nalishda bo'lib, kulliyotga yakun yasaydi. Baytlarning mazmuni ishq yo'liga kirgan oshiq uchun Iloh muhabbati, irfoniy suhbatlardan ko'ngli orom topadigan komil inson huzuridir. Mustazodning lirik qahramoni "dayri fano" ya'ni pir maskani.

Bordim bu sahar dayri fano sori urub gom,
maxmuri shabona,
Tortar edi har lahza sabuh ahli ichib jom,
noqusi mug'ona.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navoiyning asarlarini bilmaydigan o'zbek farzandi va uning asarlari kirib bormagan birorta oila bo'lmasa kerak. Qalbga yaqin she'rlari bilan ham dilimizda, ham adabiyotimizda o'chmas iz qoldirdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov Alisher Navoiy haqida "Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi..." -degan edi. Chindan ham, Navoiyni anglash-o'zlikni anglash demak.

References:

1. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik-Toshkent: "Tamaddun", 2018.
2. Davlatov O. (2021). Ma'nolar xazinasini-Toshkent. "Tamaddun"
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.5 Xazoyin ul-maoniy: Badoe' ul vasat. Nashriyot: T "Fan", 1990.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.3. Xazoyin-ul maoniy :G'aroyib us-sig'ar. "Nashriyot". T.: "Fan", 1988.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.4. Xazoyin ul-maoniy :Navodir ush-shabob. Nashriyot: T.: "Fan", 1989.
6. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.. 6. Xazoyin ul-maoniy: Favoyid ul-kibar. -T.: 1990.
7. O'z FASHI Qo'lyozma asarlar fondi. Inv N9273.
8. Muxsiniy. Barxayot gulshan. -Farg'ona, 2008.